Fidoyilik – Vatanga xizmat demak!

Zarafshon

2026-yil 25-avgust, seshanba,
74 (24.254)-son

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz info@zarnews.uz

O‘zbek xalq maqoli

Har kim o‘z uyida sulton

MUSTAQILLIK 35

YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO‘LIB, YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!

MUKOFOTLAR MUBORAK!

Mustaqillik bayrami arafasida Prezidetimiz farmonlariga muvofiq bir guruh fidoyi yurtdoshlarimiz yuksak davlat mukofotlari bilan taqdirlandi. Ular orasida viloyatimizdan ham turli sohalar vakillari bor.

Xususan, davlatimiz rahbarining “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining o‘ttiz besh yilligi munosabati bilan fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, sport, adabiyot, madaniyat va san’at sohalari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra quyidagilar taqdirlandi:

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XIZMAT KO‘RSATGAN SPORT USTOZI” faxriy unvoni bilan

ASLANOVA Yelena Yurevna - Samarqand viloyati gimnastika turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabi katta murabbiysi.

“IMOM BUXORIY” ordeni bilan

IBODULLAYEV Mahmud - Payariq tumanidagi “Imom al-Buxoriy” jome masjidi faxriy imomi.

“DO‘STLIK” ordeni bilan

HASANOV Aknazar Bekdurdiyevich - Samarqand davlat universitetining differensial tenglamalar kafedrasi mudiri.

II darajali “SOG‘LOM AVLOD UCHUN” ordeni bilan

SUYUNOV Akram Olimovich - Urgut tumanidagi 118-umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

“SOG‘LOM TURMUSH” medali bilan

HAYDAROVA Zamira Qahhorovna - Samarqand tumani sog‘liqni saqlash bo‘limining 3-oilaviy poliklinikasi mudiri.

* * *

Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining o‘ttiz besh yilligi munosabati bilan davlat xizmatchilari hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy sohalar xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi farmoni bilan quyidagilar mukofotlandi:

«O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XIZMAT KO‘RSATGAN IRRIGATOR» faxriy unvoni bilan

KARIMQULOV Aslanqul Ziyayevich - Zarafshon magistral tizimidan foydalanish boshqarmasi boshlig‘i.

«EL-YURT HURMATI» ordeni bilan

NEGMATOV Shuhrat Xudoyberdiyevich - «Nuroniy» jamg‘armasining viloyat bo‘limi raisi.

I darajali «SOG‘LOM AVLOD UCHUN» ordeni bilan

TO‘RAYEV Rashid Ergashevich - Urgut tumani nuroniylar jamoatchilik kengashi faoli.

«DO‘STLIK» ordeni bilan

QOBILOV Rustam Rajabboyevich - viloyat hokimining turizm, sport, madaniyat, madaniy meros va ommaviy kommunikatsiyalar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari.

MARMAZINSKAYA Natalya Vladimirovna - «Zarafshon» milliy tabiat bog‘ining fan va atrof-muhit monitoringi bo‘limi boshlig‘i.

«SOG‘LOM TURMUSH» medali bilan

ZOHIDOVA Zarina Sayitkulovna - Toyloq tumani Ilk rivojlanish markazi koordinatori.

MO‘MINOVA Tamara Murtazayevna - Samarqand tumanidagi «Do‘stlik» mahalla fuqarolar yig‘ini xotin-qizlar faoli.

«KELAJAK BUNYODKORI» medali bilan

BAXTIYOROV Bobirjon Bahodirovich - Amerika Qo‘shma Shtatlarining Kolumbiya universiteti huquqshunoslik mutaxassisligi magistranti.

«JASORAT» medali bilan

KINJAYEV Alik Aleksandrovich - Kattaqo‘rg‘on tumanidagi yakka tartibdagi tadbirkor.

«SHUHRAT» medali bilan *(100 yoshdan oshganlar)*

QURBONOV Narzi - Payariq tumani

«SHUHRAT» medali bilan

ABILOV Rashid Kenjaboyevich - «Navoiy kon-metallurgiya kombinati» aksiyadorlik jamiyatining Janubiy kon boshqarmasi «Zarmitan» koni uchastka ishchisi.

BERDIMURODOV Shuxrat Ulashevich - Payariq tumanidagi «Imom al-Buxoriy» yodgorlik majmuasi gid-ekskursovodi.

MAMATOV Sayfiddin G‘aybullayevich - Nurobod tumanidagi «Sahobaota qorako‘l nasl» mas’uliyati cheklangan jamiyati bosh cho‘poni.

MO‘SINOV Baxtiyor Muxamedjanovich - Jomboy tumanidagi «Baxt» mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi.

SAIDJONOV Munis Azizovich - Samarqand shahridagi «Samarkand england eco-medisal» mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori maslahatchisi.

SOLIYEVA Gulchehra Tolipovna - Oqdaryo tumanidagi shaxsiy tomorqa yer egasi.

SALOHITDINOV Asliddin Zayniyevich - Samarqand shahridagi «Yasham erkaplan carpet» mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari.

YULDAShEV Faxridin Eshquvvatovich - Kattaqo‘rg‘on tumanidagi «Rustam plasteks» xususiy korxonasi boshlig‘i.

* * *

Davlatimiz rahbarining “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz besh yilligi munosabati bilan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra, taqdirlangan samarqandliklar:

I darajali “SHON-SHARAF” ordeni bilan

ARIPOV Tohir To‘lqinovich - viloyat ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i.

“JASORAT” medali bilan

QUVVATOV Sadriddin Ahrorovich - viloyat ichki ishlar boshqarmasi tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbarlik otryadi guruh komandiri o‘rinbosari.

PARDAYEV Boburmirzo Komiljon o‘g‘li *(marhum)* - Favqulodda vaziyatlar vazirligi maxsus qutqaruv bataloni guruh komandiri.

“SHUHRAT” medali bilan

ALIXONOV Behzod Nizomidinovich - O‘zbekiston Respublikasi Transport prokuraturasi Samarqand transport prokurori.

MUKOFOTLANGANLARNI TABRIKLAYMIZ!



Murojaat ortida taqdirlar:

PAYARIQDA ODAMLAR DARDI TINGLANDI

Insonning dardini eshitish, uning muammosiga quloq tutish va yechim topish - davlat idoralari faoliyatidagi eng muhim vazifalardan biri. Ayniqsa, fuqaroning o‘z muammosini yuqori tashkilot rahbarlariga bevosita yetkazishi, mas’ullardan aniq javob olishi uchun sayyor qabullar muhim ahamiyat kasb etadi.

Payariq tumanida o‘tkazilgan navbatdagi sayyor qabul ham ana shu maqsadga qaratildi. Unda viloyat hokimi Adiz Boboyev boshchiligida mas’ullar tomonidan aholi murojaatlari ko‘rib chiqildi.

Sayyor qabullarning eng muhim jihati shundaki, fuqaro o‘z murojaatini turli bosqichlardan o‘tkazib, uzoq vaqt kutish o‘rniga, tegishli rahbarlar bilan yuzma-yuz muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Payariqdagi qabulda ham asosiy e’tibor fuqarolarning murojaatlarini eshitish, ularni tegishli mutasaddilar ishtirokida ko‘rib chiqish va har bir masala yuzasidan amaliy chora belgilashga qaratildi.

Darvoqe, ushbu sayyor qabulning qamrovi ham e’tiborga molik. Zotan, tadbir birgina tuman aholisi uchun emas, Qo‘shrabot, Ishtixon, Oqdaryo, Jomboy va Bulung‘ur tumanlari uchun ham tashkil etildi.

Soat 13:00 holatiga ko‘ra, sayyor qabulda 417 nafar fuqaro ro‘yxatga olingandi. Bu raqam ortida esa yuzlab turli taqdirlar, oilalarning tashvishlari, yillar davomida yechimini kutayotgan muammolar va kelajakka daxldor umidlar mujassam.

Tahlillarga ko‘ra, murojaatlar bir-biriga o‘xshamaydi. Bir oilaga uy-joy yoki yer masalasi muhim bo‘lsa, boshqa bir fuqaro ish bilan ta’minlanish, tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish, kredit olish yoki infratuzilma muammosini ko‘tardi. Hududlarda elektr energiyasi, ichimlik suvi, ichki yo‘llar, gaz ta’minoti, kanalizatsiya, maktab va tibbiyot muassasalari holati kabi masalalar o‘rtaga tashlandi.

Qayd qilingan har bir murojaatni yagona o‘lchov bilan baholab bo‘lmaydi. Chunki ayrim masalalar bir soha mutasaddisining vakolati doirasida hal qilinishi mumkin. Ba’zi murojaatlar esa qo‘shimcha o‘rganish, hujjatlarni tekshirish yoki bir nechta tashkilotning hamkorligini talab etadi. Shuning uchun qabulda murojaatning mohiyatidan kelib chiqib, tegishli mas’ullar va tashkilotlarga yo‘naltirildi.

Fuqaro uchun esa murojaati e’tiborsiz qolmasligini his qilish. Chunki ba’zan inson uchun muammoning moddiy qiymatidan ko‘ra, uning gapini kimdir eshitishi muhimroq bo‘ladi. Uning dardiga “bu bizning vakolatimiz emas” deb yuz o‘girish o‘rniga, tegishli tashkilotni topib berish, huquqiy tushuntirish berish yoki masalani nazoratga olish ham bir qadar yengillik beradi.

Payariqdagi sayyor qabul rahbar va xalq o‘rtasidagi masofani qisqartirdi, muammolar odamlarning o‘zidan eshitildi. Endi esa asosiy vazifa - qabulda aytilgan har bir muammoning yechimini topish, berilgan topshiriqlarning ijrosini ta’minlash va fuqarolar ishonchini amaliy natijalar bilan oqlashdir.

Y.MARQAYEV.

O‘tmishdan kuch olib, kelajakka ishonch bilan...

Bu gap Samarqandda o‘tkazilgan “Mustaqillikning 35 yilligi: milliy ma’naviy taraqqiyot natijalari va ma’rifat targ‘ibotining ilmiy-metodik masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida bot-bot takrorlandi.



Konferensiyaning ochilish marosimida viloyat hokimining o‘rinbosari Husan To‘xtayev, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari Otabek Hasanov, Samarqand davlat universiteti rektori Rustam Xolmurodov va boshqalar so‘zga chiqib, mustaqillik yillarida mamlakatimizda milliy ma’naviyatni yuksaltirish, ma’rifiy muhitni mustahkamlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan ishlar, erishilgan natijalar hamda bu borada ilmiy-metodik yondashuvlarni yanada takomillashtirish masalalari xususida fikr yuritdilar.

- Mustaqillik - bu shunchaki ozodlik emas, balki o‘zlikni anglash, milliy g‘urur va ma’naviy kuch bilan yashash demakdir, - dedi Otabek Hasanov. - Zero, ma’naviyati yuksak xalqning ruhi ham, irodasi ham, kelajagi ham buyuk bo‘ladi. Biz chinakam mustaqillikka qachon erishamiz? Qachonki ongimiz begona qarashlardan, qalbimiz qaramlik ruhidan xalos bo‘lib, o‘z qadriyatlarimiz, tariximiz va milliy g‘ururimizga tayangan holda mustaqil fikrlay olsak! Ma’naviy mustaqillik - millatning ko‘rinmas, ammo eng qudratli qalqonidir. Uni hech qanday kuch zabt eta olmaydi. Chunki o‘zligini anglagan xalqni hech kim yenga olmaydi! Mustaqillikni asrash - faqat sarhadlarni emas, avvalo qalblarimizni, ongimizni va ma’naviyatimizni asrashdir.

Anjuman doirasida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan tayyorlangan “O‘zbek kelayotir tarix qa’ridan” nomli videofilm namoyish etildi. Filmda xalqimizning boy tarixi, milliy o‘zligi, ma’naviy merosi va bugungi taraqqiyot yo‘li o‘zaro uyg‘unlikda aks ettirilgan.

Konferensiyada milliy ma’naviy taraqqiyotning dolzarb masalalari, ma’rifat targ‘ibotining samaradorligini oshirish, ilmiy va amaliy yondashuvlarni uyg‘unlashtirishga doir ma’ruzalar tinglandi.

Abror SHAXLASOV.

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz
@zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz info@zarnews.uz

Agar siz ta'lim sohasidagi haqiqiy o'zgarishlar qanday bo'lishini o'z ko'zingiz bilan ko'rmoqchi bo'lsangiz, O'zbekistonga keling!

Zarafshon

Men me'morman. Kasbim taqozosiga ko'ra butun umrim davomida tosh, g'isht, koshin va gumbazlarning tilini o'qishga harakat qilganman. Shu sababli 2021-yilda Samarqandga ilk bor qadam qo'yganimda o'zimni bir vaqtning o'zida ham mutaxassis, ham oddiy bir sayyoh kabi his qilgandim.

Yangi O'zbekistonni kashf etib:

TA'LIM, TARAQQIYOT VA XALQARO HAMKORLIK



REGISTON OLDIDA O'TKAZGAN BIRINCHI OQSHOMIM

O'sha oqshom Registon maydonida uzoq turib qoldim. Mirzo Ulug'bek madrasasining peshtoqidagi yulduzli naqshlarga tikilarkanman, bir haqiqatni anglab yetdim: bu shunchaki go'zal bino emas, bu – dunyodagi eng qadimgi muhandislik va aniq fanlar maktablaridan biri. Olti asr muqaddam bu yerda talabalar astronomiya, geometriya va hisob ilmini o'rgangan. Bugun men rahbarlik qilayotgan universitetga aynan shu buyuk alloma nomining berilgani — men uchun har kuni mas'uliyat tuyg'usini beradi.

Ammo rostini aytishim kerak, o'sha ilk tashriflarim chog'ida ko'zim faqat obidalarga tushmadi. Men universitet auditoriyalarini, laboratoriyalarni, talabalarning ish stollarini ham ko'rdim. Iqtidor, mehnatsevarlik, ustozlarda fidoyilik bor edi. Lekin zamonaviy asbob-uskuna yetishmasdi. Xalqaro ilmiy jurnallarga chiqish yo'llari torroq edi. Talabalar bilan ingliz tilida erkin suhbatlashish har doim ham oson kechmasdi. Chet ellik hamkasblar bilan qo'shma loyiha qilish g'oyasi ko'pchilikka jasoratli orzudek tuyulardi.

Endi bir tafsilotga e'tibor qarating, men O'zbekistonga kelgan 2021-yilda bu mamlakat o'z mustaqilligining 30 yilligini nishonlayotgan edi. Bugun esa men bu satrlarni 35 yillik arafasida yozmoqdaman. Ya'ni tarix menga ajoyib bir imtiyoz berdi — O'zbekiston mustaqilligining eng so'nggi besh yilini chetdan kuzatmadim, uni kundalik ish jarayonida, auditoriyalarda, kengash yig'ilishlarida va qurilish maydonlarida boshdan-oyoq yashab o'tdim. Tarix uchun besh yil — ko'z ochib yumguncha o'tadigan lahza. Ammo aynan shu lahzada bir mamlakatning o'z ta'lim tizimini qanday qilib tubdan yangilay olishiga shaxsan guvoh bo'ldim.

O'ZGARISHLAR: RAQAMLAR VA ULAR ORTIDAGI TAQDIRLAR

Bugun O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari soni 200 dan oshdi. Ular orasida davlat oliygohlari bilan bir qatorda o'nlab nodavlat universitetlar va jahonning yetakchi oliygohlarining filiallari ham faoliyat yuritmoqda. So'nggi yillarda yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasi bir necha barobar oshdi va "O'zbekiston — 2030" strategiyasiga muvofiq bu ko'rsatkichni 50 foizdan oshirish maqsad qilib qo'yilgan.

Menga esa bu raqamlarning ortidagi jonli manzara yaxshiroq tanish.

Ta'lim jarayoni to'liq kredit-modul tizimiga o'tkazildi va Yevropaning ECTS tizimi qabul qilindi. Bu quruq ma'muriy o'zgarish emas, bu samarqandlik talabaning Istanbul yoki Kuala-Lumpurda o'qigan semestri o'z vatanida tan olinishi demakdir. "3+1" qo'shma dasturlari yoshlarga ikki diplom bilan bitirish imkonini berdi. Xalqaro akkreditatsiyadan o'tgan ta'lim dasturlari soni yildan yilga ortib bormoqda.

Men kelgan 2021-yilda universitetimiz talabasi uchun Yaponiya yoki Ispaniyada amaliyot o'tash deyarli erishib bo'lmas orzu edi. Bugun bizning talabalarimiz Yaponiyaning Setsunan universitetida xalqaro seminarlarda qatnashmoqda, professor-o'qituvchilarimiz AQShning Savannah san'at va dizayn kolleji (SCAD), Turkiyaning Yildiz texnika universiteti kabi oliygohlarida malaka oshirmoqda. Universitetimizning bugungi hamkorlik geografiyasi 20 dan ortiq mamlakatning qariyb 100 ta universiteti va yirik sanoat korxonalarini qamrab oladi.

ENG KATTA ISLOHOT BU – ISHONCH

Ko'p mamlakatlar ta'lim islohotlari haqida gapiradi. Ammo davlat universiteti rahbarligini chet el fuqarosiga ishonib topshirish bu – jasoratning butunlay boshqa darajasi.

O'zbekiston hukumati aynan shu qadamni tashladi. Toshkent va Samarqanddagi bir qator oliygohlarga xorijiy mutaxassislar rektor etib tayinlandi. Men ham shu qarorlardan birining natijasi sifatida bu vazifani zimmamga oldim.

Rostini aytsam, dastlab hayajonlandim: meni qanday qabul qilishadi? Boshqa mamlakatdan kelgan, boshqa maktabda tarbiyalangan, bundan tashqari ayol rahbarga jamoa qanday munosabatda bo'ladi?

Bugun bu savolga aniq javob bera olaman. Meni professor-o'qituvchilar, talabalar, Samarqand shahri va viloyat rahbariyati — barchasi ochiq yurak bilan qabul qildi. Men bu yerda mehmon emas, jamoaning bir a'zosi ekanligimni his qildim. Ishonch og'ir yuk emas, u qanot ekan. Meni oldinga eltayotgan narsa ham aynan shu.

UNIVERSITETIMIZ MISOLIDA

Yaqinda universitetimiz hayotida tarixiy voqea yuz berdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 26-maydagi qaroriga muvofiq Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti negizida **Samarqand davlat texnika universiteti tashkil etildi.**

Bu shunchaki nom o'zgarishi emas. Bu — universitetimizning me'morchilik va qurilish yo'nalishidagi kuchli maktabini saqlab qolgan holda, muhandislik ta'limining kengroq maydoniga chiqish demakdir. Qaror doirasida 2027/2028-o'quv yilidan universitetimizda Intellektual suv texnologiyalari ilg'or muhandislik maktabi faoliyatini yo'lga qo'yish belgilandi. Markaziy Osiyo uchun suv resurslarini oqilona boshqarish masalasi qanchalik hayotiy ahamiyatga ega ekanini hisobga olsak, bu qarorning uzoqni ko'zlab qabul qilinganini anglash qiyin emas.

Shuningdek, oliygohlar bilan hududdagi yirik sanoat korxonalari o'rtasida sanoat hamkorligini yo'lga qo'yish vazifasi belgilandi. Bu — ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi bo'yicha jahon amaliyotida o'zini oqlagan model.

ME'MOR NIGOHI BILAN KO'RILGAN BESH YIL

Kasbim menga bir imtiyoz bergan: men o'zgarishlarni raqamlardan emas, binolardan o'qiyman va shuni ayta olamanki, so'nggi besh yil men uchun ochiq osmon ostida o'tgan uzoq me'morchilik darsi bo'ldi.

Men kelgan paytda Samarqand aeroporti hali eski terminalda ishlardi. Bir yil o'tmay yangi bino ochildi va uni birinchi marta ko'rganimda taassurotlar katta bo'lgan. Terminal ochiq kitob shaklida qurilgan: Mirzo Ulug'bekning astronomik asari. Tomida esa yulduzlar turkumi. Shaharga havodan kelgan mehmon, hali chamadonini olib ulgurmay, Ulug'bek osmonini ko'radi.

Ammo meni eng ko'p hayratlantirgan yana ikkita joy bor. Ular – **Imom Buxoriy majmuasi va Islom sivilizatsiyasi markazi.**

Imom Buxoriy majmuasida yurar ekansiz, avvalo sukunatni his qilasiz, keyin esa ishning ko'lamini anglaysiz. Maqbara ham, uni o'rab turgan tarixiy muhit ham o'z joyida qoldi, atrofda esa butunlay yangi zamon qatlami paydo bo'ldi. Men konservatsiya bilan shug'ullanadigan mutaxassis sifatida aytaman: bu — bizning kasbimizdagi eng qiyin vazifa. Eskini saqlab, unga shikast yetkazmay yangini qo'shish uchun mablag'ning o'zi kifoya qilmaydi, bu yerda did va tarixga hurmat kerak.

Toshkentda joriy yil bahorida ochilgan Islom sivilizatsiyasi markazida yuqoriga boqsangiz, gumbaz ostida yulduzli osmonni ko'rasiz. Bu shunchaki bezak emas, bu – Toshkent osmonining haqiqiy yulduz xaritasi.

O'shanda men bir narsani angladim. Aeroportda ham, bu yerda ham me'morlar bir xil harakatni takrorlashgan: yangi binoni osmonga, ya'ni bu xalqning eng qadimiy ilmiy an'anasiga bog'lashgan. Bu tasodif emas. Bu — o'z ildizini bilgan mamlakatning ongli tanlovi.

Bunday misollarni esa butun mamlakat bo'ylab uchratishimiz mumkin. Yangi turarjoy massivlari, maktablar, shifoxonalar, yo'llar — qurilish bugun O'zbekistonda eng jadal rivojlanayotgan sohalardan biri. Bizning universitetimiz uchun bu shunchaki manzara emas, balki kundalik mas'uliyat: bu obyektlarni loyihalaydigan va quradigan muhandislarni aynan biz tayyorlaymiz. Talabam bugun chizgan chizma ertaga kimningdir uyi bo'lishini bilish — o'qituvchi uchun ham mas'uliyatli, ham faxr baxsh etuvchi tuyg'u.

Eng muhimi esa boshqa narsada. Bugun kampusimizda yurar ekanman, xorijlik talabalarni uchrataman. Ingliz tilida bemalol suhbatlashadigan, xalqaro grant loyihalarida ishtirok etayotgan yosh tadqiqotchilarni ko'raman. Muhandislik yo'nalishlarida tahsil olayotgan qizlarimizning safi kengaymoqda — bu men uchun alohida quvonch.

MUSTAQILLIKNING 35 YILI VA OLDINDA TURGAN YO'L

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 35 yilligi arafasida men bu mamlakatga tashqaridan kelgan, ammo endi o'zini uning bir qismi deb his qiladigan inson sifatida fikr bildirmoqdaman.

Olti asr muqaddam Mirzo Ulug'bek Samarqandga o'z davrining eng yaxshi olimlarini taklif qilgan. U bilim chegara bilmasligini, ilm faqat ochiqlik sharoitidagina rivojlanishini yaxshi tushungan. Bugun O'zbekiston aynan shu an'anani yangi tarixiy bosqichda tiklamoqda.

Yo'l hali uzoq. Xalqaro reytinglarda mustahkam o'rin egallash, ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, bitiruvchilarni sifatli ish bilan ta'minlash — bularning barchasi yillar davom etadigan mehnatni talab qiladi. Ammo eng qiyin qadam allaqachon tashlandi: yo'nalish tanlandi va bu taraqqiyot yo'lidir.

Men o'z hamkasblarimga — Turkiya, Yevropa, Osiyo va Amerika universitetlaridagi do'stlarimga doim bir gapni aytaman: **agar siz ta'lim sohasidagi haqiqiy o'zgarishlar qanday bo'lishini o'z ko'zingiz bilan ko'rmoqchi bo'lsangiz, O'zbekistonga keling.**

Bu yerda kelajak qurilmoqda va men bu jarayonning ishtirokchisi bo'lganimdan faxrlanaman.

doktor Chidem Janbay TURKYILMAZ,
Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat texnika universiteti rektori.

Xalqning baxti va kelajakning kafolati

YOKI MUSTAQILLIK NIMA BERDI TURKUMIDAN

Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, dunyoda hech bir ne'mat, hech bir yutuq o'z o'zidan, osonlikcha qo'lga kiritilmaydi. Ayniqsa, millatning ozodligi, davlatning mustaqilligi hech qachon hech kimga tuhfa qilingan emas. O'zbekiston xalqi uchun ham mustaqillik - bu shunchaki taqvimdagi oddiy bir sana yoki siyosiy jarayonlarning tasodifiy mahsuli emas. Bu - asrlar davomida ajdodlarimiz orzu qilgan, yo'lida jon fido qilgan, qon to'kkan, kurashgan va oxir-oqibat haqiqat qaror topib qo'lga kiritilgan buyuk va muqaddas zafardir.





1991-yil 31-avgust kuni O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilinganda, jahon xaritasida yangi, yosh va salohiyatli bir davlat paydo bo'ldi. Xo'sh, o'tgan davr mobaynida bu yangilik bizga nima berdi? Bu savol bugungi kunda nafaqat tarixchilar yoki siyosatchilar, balki har bir fuqaro, har bir yosh avlod uchun eng muhim savollardan biri.

QARAMLIKDAN SUVEREN DAVLATCHILIKKACHA

Mustaqillikkacha bo'lgan davrda O'zbekiston aslida boy xom ashyo bazasi bo'lgan, ammo o'z taqdirini o'zi belgilash huquqidan mahrum bir o'lka edi. Toshkentda qabul qilinadigan har bir qaror, har bir reja avvalo Moskvaning chig'irig'idan o'tishi, uning ruxsati bilan amalga oshirilishi lozim edi.

Istiqlol sharofati bilan O'zbekiston o'z Konstitutsiyasiga, davlat gerbi, bayrog'i va madhiyasiga ega bo'ldi. Bular shunchaki rasmiy ramzlar emas, balki xalqaro maydonda davlatning borligini, uning suverenitetini anglatuvchi muqaddas belgilar.

Ilgari o'zbek yigitlari o'z yurtini emas, sobiq ittifoqning uzoq-uzoq chegaralarini, o'zga davlatlarning manfaatlarini himoya qilish uchun harbiy xizmatga jo'natilar edi. Bugungi kunda yigitlarimiz o'z Vatanini, o'z oilasini himoya qilmoqda. Ayni vaqtda O'zbekiston Qurolli Kuchlari mintaqadagi eng qudratli va zamonaviy armiyaga aylandi.

Bundan tashqari, iqtisodiy suverenitetning bosh belgisi bo'lgan milliy valyutamizning joriy etilishi moliyaviy siyosatni mustaqil yuritish imkonini berdi.

- Hammasi o'z yo'liga, - deydi uzoq yillar jamoa xo'jaligi, ya'ni kolxozda turli vazifalarda ishlagan 80 yoshli hamqishlog'im. - Sobiq ittifoq davrida O'zbekiston iqtisodiyoti bir yoqlama - faqat paxta xom ashyosi yetkazib berishga moslashtirilgan edi. Bu siyosat xalqimiz boshiga qanchadan-qancha azob-uqubatlarni solgani tarixdan ma'lum.

Paxta yakkahokimligi tufayli yerlarimiz sho'rlandi, suv tizimlari izdan chiqdi, eng achinarlisi, bolalar maktabda o'qish o'rniga oylab dalada mehnat qilishga majburlandi. Hozir o'sib kelayotgan avlod uchun bular xuddi ertakdek tuyuladi. Ha, istiqlol tufayli erishilgan dorilomon kunlar yaqin tariximizni ham ishonib bo'lmas davrga aylantirdi.

Darhaqiqat, mustaqillik yillarida, ayniqsa, keyingi o'n yillikdagi islohotlar natijasida O'zbekiston agrar mamlakatdan industrial-agrar davlatga aylandi. Bugungi kunda mamlakatimizda paxta xom ashyo sifatida chetga sotilmaydi, balki o'z yurtimizda to'liq qayta ishlanib, tayyor mahsulot - kiyim-kechak, trikotaj shaklida "Made in Uzbekistan" brendi ostida dunyo bozorlariga chiqarilmoqda. Majburiy mehnat va bolalar mehnatiga butunlay chek qo'yildi.

Tahlilchilarga ko'ra, istiqlol yillarida avval bo'lmagan bir qator sanoat tarmoqlari tashkil etildi. Jumladan, ilgari bitta ham mashina ishlab chiqarilmaydigan yurtimizda bugun yengil avtomobillar, yuk mashinalari va avtobuslar ishlab chiqaruvchi yirik zavodlar faoliyat yuritmoqda. Ustyurt gaz-kimyo majmuasi, Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi, "UzGTL" zavodi kabi yirik gigantlar aynan istiqlol yillarida ishga tushirildi. Endi faqat xom gaz emas, balki undan yuqori qiymatga ega suyuq yoqilg'i va polimerlar ishlab chiqaryapmiz. Maishiy texnika vositalari - televizorlar, muzlatkichlar, konditsionerlar va kompyuter texnologiyalari o'zimizda tayyorlanmoqda.

MA'NAVIY VA MADANIY UYG'ONISH

Ayni paytda O'zbekiston BMT, ShHT, MDH, Turkiy davlatlar tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tuzilmalarning teng huquqli a'zosi. Jahon minbarlaridan turib o'zbek tilida global muammolar, mintaqaviy xavfsizlik, Orol fojiasi, suv resurslaridan oqilona foydalanish va Afg'onistonda tinchlik o'rnatish bo'yicha tashabbuslar ilgari surilmoqda va bu tashabbuslar dunyo hamjamiyati tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Demak, mustaqillik o'zbek nomini, O'zbekiston nomini dunyoga tanitdi va tan oldirdi.

Aslida mustaqillik o'zbek xalqiga o'z tarixini, o'z ajdodlarini va o'z dinini qaytarib berdi. Zero, sobiq tuzum davrida milliy o'zlikni anglash taqiqlangan yoki cheklangan edi. Masalan, dunyo tamaddunida o'ziga xos o'ringa ega Amir Temur nomi "qonxo'r bosqinchi" deb qoralangan. Diniy ibodatlar, hayit bayramlari ta'qib ostida edi.

Bugun esa O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari, turli diniy konfessiyalar tinch-totuv yashab kelmoqda. Mustaqillik bizga mana shu bebaho boylikni - tinchlik va barqarorlikni berdi.

- Aynan istiqlol tufayli o'zbek yoshlari uchun jahon andazalari darajasida ta'lim olish imkoniyati yaratildi, - deydi oliy ta'lim muassasalarida ishlovchi tanishlarimdan biri. - Ilgari oliy ma'lumot olish faqat sanoqli odamlarga nasib etardi, oliy o'quv yurtlariga kirishdagi korrupsiya va suiiste'molchiliklar ko'plab iqtidorli yoshlarning yo'lini to'sardi.

Ayniqsa, keyingi yillarda ta'lim tizimi tubdan o'zgardi. Misol uchun, oliy ta'lim muassasalari soni bir necha barobarga oshdi. Mamlakatimizda nafaqat mahalliy, balki Buyuk Britaniya, AQSh, Janubiy Koreya, Singapur, Italiya kabi davlatlarning nufuzli universitetlari filiallari muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

Prezident maktablari va ijod maktablari tashkil etilib, eng iqtidorli bolalarni saralab olish va ularga yuqori darajada bilim berish tizimi yo'lga qo'yildi.

"El-yurt umidi" jamg'armasi orqali minglab o'zbek yigit-qizlari davlat grantlari hisobidan dunyoning eng yetakchi universitetlari Oksford, Kembridj, Garvardda tahsil olmoqda. Bu mustaqillikning bizga bergan intellektual kapitalidir.

Butun jamoatchiligimiz haqli e'tirof etadigan ish - mustaqillik o'zbek sportchilari va san'atkorlariga o'z bayrog'i ostida xalqaro maydonga chiqish huquqini berdi. Ilgari Olimpiada o'yinlarida oltin medal olgan sportchimiz sharafiga sobiq ittifoq madhiyasi chalinardi. Bugun esa dunyoning eng yirik sport arenalarida O'zbekiston madhiyasi yangrab, bayrog'imiz baland ko'tarilayotganda har bir vatandoshimizning qalbida cheksiz faxr tuyg'usi jo'sh uradi.

O'zbekiston boks, dzyudo, og'ir atletika, shaxmat bo'yicha dunyoda yetakchi davlatlardan biriga aylandi. Ayniqsa, shaxmat bo'yicha yoshlarimizning Butunjahon shaxmat Olimpiadasida chempion bo'lishi o'zbek millatining intellektual salohiyati qanchalik yuqori ekanligini ko'rsatdi.

XOTIRJAM YASHASH VA MEHNAT QILISH BAXTI

Agar 30-35 yil oldingi shahar va qishloqlarimizning fotosuratlarini bugungi kun bilan solishtirsak, farq yer bilan osmoncha ekanligiga guvoh bo'lamiz. Xususan, ko'hna va hamisha navqiron kentimizda qad rostlagan Samarqand xalqaro turizm markazi, tumanlardagi zamonaviy majmualar, "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida chekka-chekka hududlarda amalga oshirilayotgan yangilanishlar xalqimizning yashash sharoitini tubdan yaxshilamoqda. Ilgari oddiy odamlar uchun ko'p qavatli uylardan xonadon sotib olish orzu bo'lgan, bugun imtiyozli ipoteka kreditlari tizimi orqali yuz minglab oilalar o'z uylariga ega bo'lmoqda.

- Mustaqillik bizga eng avvalo musaffo osmon ostida, xotirjam yashash va mehnat qilish baxtini berdi, - deydi sobiq ittifoq davrida Afg'onistonda xizmat qilgan Qo'shboq aka. - Ertalab farzandini maktabga kuzatayotgan ona uning sog'-salomat qaytishiga, tadbirkor o'z biznesini ertaga ham xotirjam davom ettirishiga ishonadi. Aslida mana shu ishonch va xotirjamlik istiqlolning eng katta mevasi.

Dunyoning turli nuqtalarida sodir bo'layotgan siyosiy inqirozlar, urushlar, iqtisodiy qiyinchiliklar va migratsiya muammolari fonida O'zbekistondagi tinchlik va osoyishtalik qadri yanada yaqqolroq namoyon bo'lmoqda.

Tahlilchilarga ko'ra, mustaqillik bizga o'z taqdirimizni o'z qo'limiz bilan yozish huquqini berdi. U bizni qaramlik zanjirlaridan xalos qilib, o'z uyimizning, o'z yerimizning haqiqiy egasiga aylantirdi. U bizga insoniy qadr-qimmatni, milliy o'zlikni va kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyatni his qilish tuyg'usini berdi.

Bugun O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi bosqichida Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidan dadil ilgarilab bormoqda. Bu yo'lda yutuqlarimiz bilan bir qatorda yechimini kutayotgan muammolar, kamchiliklar ham yo'q emas. Ammo eng muhimi, biz to'g'ri yo'ldan ketyapmiz, o'z maqsadlarimizni aniq bilamiz.

Shu ma'noda mustaqillik bu faqatgina berilgan ne'mat emas, bu ayni paytda katta mas'uliyat hamdir. Uni asrab-avaylash, yanada mustahkamlash va kelajak avlodlarga ozod va gullab-yashnayotgan Vatan sifatida topshirish bugun shu aziz tuproqda yashayotgan har bir insonning, har bir o'zbekistonlikning muqaddas burchidir.

Yoqubjon MARQAYEV.

Shu oyda ba’zi markaziy shifoxonalarda bepul operatsiyalar amalga oshirilishi to‘xtab qoldi, navbatlar cho‘zilib ketdi. Nega bunday holat ro‘y berayotganini bilish uchun viloyatdagi bir nechta yirik shifoxonalar mutasaddilariga murojaat etdik. Barchasi emas, ammo aksariyat shifoxonalar shunday holat ro‘y berganini tan oldi, ba’zilari ularda bu masalada muammo bo‘lmagani, yuqori texnologik operatsiyalar maromida, navbati bilan o‘tkazilayotganini ta’kidladi.

Shifoxonalarga pul AJRATILISHI KECHIKYAPTIMI?



Nega bunday holatlar yuz berayotgani haqida **davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi viloyat hududiy boshqarmasi boshlig‘i Davron Razzoqovdan so‘radik.**

- Shu yilning 1-iyulidan boshlab davlat tibbiy sug‘urtasi tizimida ba’zi o‘zgarishlar ro‘y berdi, - dedi D.Razzoqov. – Bu o‘zgarishlar asosan yuqori texnologik operatsiyalar o‘tkazadigan muassasalar faoliyati bilan bog‘liq. Yil boshida tibbiy sug‘urta mablag‘lari gorizontal tarzda taqsimlandi. Bu nima degani? Barcha tibbiyot muassasalariga bemorlar va o‘rinlar soniga, ilgari amalga oshirgan operatsiyalari hisobiga qarab mablag‘ birdan ajratib berilgan edi. Endilikda tartib o‘zgardi. Ya’ni, aynan zamonaviy, yuqori texnologiyalar yordamida jarrohlik amaliyotlarini amalga oshiradigan shifoxonalar har kuni tegishli platforma orqali arizalarni onlayn to‘ldirib, mablag‘ olish imkoniga ega. Bunda albatta ushbu shifo maskanlarida o‘sha operatsiya uchun qanchalik shart-sharoitlar mavjudligi hamda bemorning tanlovi muhim ahamiyatga ega. Ya’ni, bemor yoki uning oilaviy shifokori onlayn ariza topshirar ekan, birdan o‘ziga ma’qul bo‘lgan tibbiyot muassasasini ham tanlash imkoniga ega bo‘ladi. Endilikda pul ajratish bemorning tanlovi bilan bog‘liq bo‘lib qoldi. Bu jarayonda xususiy shifoxonalar ham bevosita ishtirokchiga aylandi.

Statsionar davolanish tizimida ham biroz o‘zgarishlar kuzatildi. Ya’ni, 2026-yil 1-iyuldan boshlab davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlari joriy etilgan hududlarda aholiga elektron navbat asosida bepul rejali statsionar tibbiy yordam ko‘rsatish tizimi amaliyotga kiritildi.

Asosiy o‘zgarishlar:

Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlari amalda bo‘lgan hududlarda tuman, shahar va viloyat darajasidagi shifoxonalarda rejali shifoxona yordami elektron navbat orqali bepul taqdim etila boshlandi.

Bu huquq asosan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i yoki ijtimoiy soliq to‘lovchilarga hamda qonunchilikka muvofiq mehnat staji hisoblanadigan shaxslarga beriladi.

Nodavlat (xususiy) tibbiyot tashkilotlariga ham davlat tibbiy sug‘urtasi va litsenziya doirasida davlat budjeti mablag‘lari hisobidan tibbiy xizmatlar ko‘rsatishga ruxsat berila boshlandi.

* * *

Bir qator tibbiy markaz mutasaddilari bilan suhbatlashganimizda, bu yangi platforma bo‘lgani uchun boshida mablag‘ olishda tushunmovchiliklar bo‘lgani, ammo hozirda bu masalada muammo kuzatilmayotganini ta’kidlashdi. Shuningdek, bu erkin raqobat maydonida xususiy tibbiyot muassasalari ham “chaqqonlik“ qilayotganini aytib, qandini ursin, deganlar ham bo‘ldi. Ha, sog‘lom raqobat mana shu-da, aslida.

Gulruh MO‘MINOVA.

Mutaxassis minbari

Kichik xatoning katta oqibati

Yoki ishdan chiqib, uyga qaytish uchun kafolat kerakligi xususida qaydlar

Har kuni tongda millionlab odamlar uylaridan ishga otlanadi. Har bir inson ishga ketayotganda kechqurun sog‘-omon oilasi bag‘riga qaytishni niyat qiladi. Biroq har qanday sex, qurilish maydoni yoki zamonaviy ofisda ko‘zga ko‘rinmas xavflar bo‘lishi mumkin.

Shuning uchun mehnatni muhofaza qilish - shunchaki qog‘ozdagi quruq qoidalar majmui emas. Bu inson hayoti va sog‘lig‘ini asrashning eng muhim kafolati, mehnat madaniyatining ajralmas qismi va jamiyat taraqqiyotining muhim ko‘rsatkichidir.

Bugun sanoat 4.0 davriga qadam qo‘yib, texnologiyalar jadal rivojlanmoqda, avtomatlashtirilgan uskunalar keng joriy etilmoqda. Biroq inson omili hamon har qanday tizimning markazida turibdi. Xavfsiz mehnat muhiti yaratilmagan joyda hech qanday iqtisodiy yutuq yoki texnologik taraqqiyot kutilgan samarani bermaydi. Zero, har bir baxtsiz hodisa ortida inson taqdiri, oila dardi va ko‘zyoshlar bor.

Qoidalarga rioya qilmaslik qanday fojialarga olib kelishi mumkinligini quyidagi misollar orqali ham yaqqol tasavvur qilish mumkin.

1-misol. Qurilish maydonidagi bir lahzalik xato.

Yirik turarjoy majmuasi qurilishida ishlayotgan 24 yoshli g‘isht teruvchi ishchi 4-qavatda xavfsizlik kamarini taqmasdan va langarga bog‘lamasdan ishlagan. Ish davomida muvozanatini yo‘qotib, pastga yiqilgan va og‘ir oqibat yuzaga kelgan.

Vaholanki, oddiy xavfsizlik choralariga rioya qilish fojianing oldini olishi mumkin edi.

2-misol. Sanoat korxonasida texnologik intizomsizlik.

To‘qimachilik fabrikasida dastgoh operatori uskuna ishlab turgan vaqtda uning ichiga tiqilib qolgan matoni qo‘li bilan olishga uringan. Blokirovka tizimi mavjud bo‘lmagani sababli dastgoh valining aylanishi oqibatida ishchi qo‘lidan og‘ir jarohat olgan.

Bu yerda uskunani to‘liq o‘chirish, energiya manbasini ajratish va bloklashni nazarda tutuvchi LOTO (Lockout/Tagout) tamoyillariga amal qilinmagan.

RAQAMLAR NIMADAN OGOHLANTIRMOQDA?

Ish joylaridagi baxtsiz hodisalar statistikasiga nazar tashlasak, raqamlar jiddiy xulosa chiqarishga undaydi. Jahon miqyosida va mamlakatimizda qayd etilayotgan ko‘rsatkichlar mehnat muhofazasi masalasiga yanada mas’uliyat bilan yondashish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘ylab har yili ishlab chiqarish bilan bog‘liq baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari oqibatida qariyb 3 million ishchi hayotdan ko‘z yumadi. Bu har kuni minglab insonlar o‘z ish joyidan uyiga qaytmasligini anglatadi.

O‘zbekiston davlat mehnat inspeksiyasi hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi taqdim etgan rasmiy statistik ma’lumotlar ham vaziyatning jiddiyligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, 2025-yil yakunlariga ko‘ra, mamlakatimizda 849 ta mehnat faoliyati bilan bog‘liq baxtsiz hodisa qayd etilgan.

Afsuski, ushbu hodisalar oqibatida 248 fuqaro halok bo‘lgan. Shuningdek, 680 ishchi og‘ir tan jarohati olgan.

Joriy yilning dastlabki yetti oyida esa mehnat faoliyati bilan bog‘liq 529 ta baxtsiz hodisa sodir bo‘lgan. Ushbu hodisalar oqibatida 580 kishi jabrlangan. Ularning 402 nafari og‘ir jarohat olgan, 156 nafar hamyurtimiz fojiali tarzda vafot etgan.

Guvohi bo‘lganingizdek, statistik raqamlar mehnat muhofazasini ta’minlashda qog‘ozbozlikdan samarali amaliy harakatga o‘tish qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini isbotlab turibdi. Ya’ni, har qanday korxonada xavfsizlikni tizimli boshqarish rahbarlar va mutaxassislarning ustuvor vazifasi bo‘lishi kerak. Bu tizim quruq buyruqlar yoki yo‘riqnomalardan emas, balki amalda ishlaydigan mexanizmlardan tashkil topishi lozim.

XAVFSIZ MUHIT QANDAY VA NEGA YARATILADI?

Mehnat kodeksi hamda “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun talablariga muvofiq, ish beruvchi xodimlar uchun xavfsiz va sog‘lom mehnat sharoitlarini yaratishi shart.

Mehnatni muhofaza qilish talablarini buzish, ayniqsa, buning oqibatida inson hayoti yoki sog‘lig‘iga jiddiy zarar yetkazilishi mas’ul shaxslarni qonunchilikda belgilangan tartibda ma’muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo‘lishi mumkin.

Xavfsizlik texnikasi talablariga rioya qilmaslik uchun ham qonunchilikda tegishli jarima va boshqa javobgarlik choralari belgilangan. Shuning uchun mehnat muhofazasi talablariga rioya qilish nafaqat kasbiy, balki huquqiy majburiyat hamdir.

Musurmon MAMADIYOROV,
O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi viloyat kengashi qoshidagi “Kasaba ziyo” o‘quv markazi direktori.
Zikrilla YASAKOV,
Samarqand davlat texnika universiteti kafedra mudiri.

REKLAMA, E’LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada ikki marta - chorshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e‘lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat texnika universiteti kafedralarida tanlov muddati tugagan hamda kafedra mudiri vazifasini bajaruvchi lavozimlariga mehnat shartnomasi asosida

TANLOV E'LON QILADI

KAFEDRA MUDIRLIGI LAVOZIMIGA:

Arxitektura fakulteti:
1. Arxitektura
2. Landshaft dizayn
3. Interyer dizayni
4. Shaharsozlik
Madaniy meros obyektlarini asrash fakulteti:
1. Madaniy meros obyektlarini asrash
2. Arxitektura yodgorliklari rekonstruksiyasi va restavratsiyasi
Qurilish fakulteti:
1. Qurilish muhandisligi
2. Geomatika muhandisligi
3. Mexanika muhandisligi
4. Atrof muhit muhandisligi
5. Mehnat muhofazasi va salomatlik muhandisligi
Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti:
1. Iqtisodiyot
2. Ko‘chmas mulkni boshqarish
3. Biznesni boshqarish
Rektorat kafedralari:
1. San’at
2. Ijtimoiy va tabiiy fanlar
3. Axborot texnologiyalari
4. Xorijiy tillar
5. O‘zbek tili va adabiyoti

MALAKA TALABLARI:

1. Mutaxassislik bo‘yicha falsafa doktori (PhD) darajasiga ega bo‘lish
2. Universitet darajasida ta’lim berish tajribasiga ega bo‘lish
3. A’lo darajadagi muloqot va shaxslararo ko’nikmalarga ega bo’lish
4. Hamkasblar bilan jamoaviy ishlash va ijobiy akademik muhitga hissa qo‘shish qobiliyatiga ega bo‘lish

KERAKLI HUJJATLAR:

Tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan nomzod universitetning xodimlar bo‘limiga quyidagi hujjatlarni topshiradi:
- ariza
- shaxsiy varaqa (ma’lumotnoma-obyektivka/rezyume)
- diplom nusxasi (bakalavr, magistr, PhD), shuningdek, chet elda olingan diplomni tan olish va nostrifikatsiyadan o‘tganligini tasdiqlovchi guvohnoma
- fuqarolik pasporti yoki ID kartasi
- professor-o‘qituvchilar faoliyatini baholash mezonlari (KPI) jadvalida ko‘rsatilgan tegishli talablarni bajarganligini asoslovchi hujjatlar
- xorijiy tilni (ingliz tiliga ustunlik beriladi) bilish darajasini asoslovchi sertifikat
- nomzodning ilmiy daraja, ilmiy unvon, shuningdek, ilmiy ishlar va ixtirolari mavjud bo‘lgan taqdirda ularga tegishli diplomlar, diplom nusxalari va ilmiy ishlar ro'yxati, malaka oshirish to‘g‘risidagi guvohnomalar

QUYIDAGILARGA TANLOVDA QATNASHISHGA YO‘L QO‘YILMAYDI:

- o‘n olti yoshga to‘lmagan shaxslar
- belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar
- universitetda mehnat faoliyatini olib borayotgan xodim bilan yaqin qarindosh yoki quda-anda bo‘lgan (ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, farzandlar, er-xotinlar, shuningdek, er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) va ishga qabul qilinayotgan yoki tayinlanayotgan lavozim ulardan biri ikkinchisiga bevosita bo‘ysunib yoki uning nazorati ostida xizmat qilishni taqozo qiladigan shaxslar
-ishga kirish uchun soxta hujjatlar yoki bila turib yolg‘on ma’lumotlar taqdim etgan shaxslar
- sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar
- qonun hujjatlarida belgilangan boshqa holatlardagi shaxslar

ARIZA TOPSHIRISH MUDDATI:

- tanlov e’lon qilingan kundan e’tiboran 1 (bir) oy

TUSHUNTIRISH:

- kafedra professor-o‘qituvchilari faoliyatini baholash mezonlari (KPI) va ilmiy darajalar mezonlari jadvali universitetning xodimlar bo‘limidan olinadi

MANZIL:

Samarqand shahri Lolazor ko‘chasi, 70-uy. Kadrlar bo‘limi (hujjatlar shaxsan topshiriladi).

MAS’UL:

- xodimlar bo'limi boshlig‘i Jamolov Aminxo‘ja
Telefon:
+99893-349-47-57.
Email:
jamolov.aminxoja@samdaqu.edu.uz

To‘liq bo‘lmagan yoki belgilangan muddatdan keyin topshirilgan hujjatlar ko‘rib chiqilmasligi mumkin.

SDTU – jamoada xilma-xillik va inklyuzivlikni qo‘llab-quvvatlashga intiladigan teng imkoniyatlarga ega ish beruvchidir.

DA’VOLAR BO‘LSA...

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo‘raqulovich notarial idorasida marhum Kobilov Sharobidin Raxmonovichga (2023-yil 26-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Muhammadiyev Farhod Jo‘raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 73-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Axmedova Dilorom Maxmudjonovnaga (2003-yil 16-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko‘chasi, 5/1-uy.

* * *

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o‘g‘li notarial idorasida marhum Xusenova Sakinaga (2026-yil 14-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Davronov Mahmud Hasan o‘g‘li notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag‘rikenglik ko‘chasi, 4-uy.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Nurmamatov Bozorboy Shirinboyevichga (2011-yil 8-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 73-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Gafarova Martaba Ziyayevnaga (2025-yil 14-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko‘chasi 200-uy 3-xona.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Jumanov Tuvalboyga (2019-yil 4-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 73-uy.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po‘latovich notarial idorasida marhum Qo‘chqorov Hasan Turdibayevichga (2023-yil 30-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Toshtemirov Alisher Po‘latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 117-uy.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasida marhum Qarshiyev Rustam Baxodirovichga (2022-yil 7-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 13-uy.

* * *

BEKOR QILINADI

Urgut tumani Satang mahallasida yashovchi Axmedov Xamroqul Ashrapovichga tegishli turarjoy binosining kadastr hujjatlari (eski kadastr raqami: 14:14:06:02:06:0020) yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

* * *

Samarqand tumanidagi Yadgarova Dilfuza Xamroboyevna yakka tartibdagi tadbirkorining (JSHSHIR: 43107760170046) dumaloq muhri va burchak tamg‘asi yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi Samarqand viloyat kengashi hamda barcha tarmoq kasaba uyushma kengashlari jamoalari “Kasaba ziyo” o‘quv markazi mutaxassisi Baxtiyor Toshevga onasi

Tanzila ISKANDAROVAning

vafoti munosabati bilan ta’ziya izhor etadi.

10-28-sentabr kunlari Samarqandda 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi o‘tkaziladi

Zarafshon

«Биз ҳам илм майдонига кирамиз»


Достончилик ўзбек адабиётининг таълим-тарбиядаги энг катта, самарали воситаси ҳисобланган. Айниқса, халқ оғзаки ижоди орқали яратилган достонлар давраларга мазмун бағишлаган. Маърифат аҳлининг аксарияти ана шу ҳикматли асарларни тинглаб камолга етган.

Таниқли адиблар яратган достонлар эса ўзининг илмий хулосалари, тарихий воқеликларга муносабати билан ажралиб турган. «Хамса» шулар жумласидандир. Табиийки, бу жанрга ва «Хамсалар»да ёзилган достонларга шарҳ бериб ўтиришдан тийиламан, чунки бунга менинг қувваи ҳофизам етмайди, лекин камина ҳам ана шу асарларни ўқиб, бошқа зиёлилар каби таъсирланганман, улардан маҳоратни ўрганганман. Яшириб ўтирмайман, алломалар ёзган достонларни ҳар ким ўқиб ҳазм қила олмаган. Чунки улардаги илмийлик (манбалар ва жуғрофий номлар шарҳи) алоҳида иқтидор ва эътибор талаб қилган. Бу асарларни ўқиган нотиқлар достон мазмунини соддароқ қилиб тушунтириб берганлар. Бу услуб ҳам бедилхонлик, навоийхонлик, ганжавийхонлик давраларининг удумига айланган.

Ўзбек адабиётида ҳам достончилик услуби замон зайлига қараб эврилиб турган. Ҳатто шоҳ ва амирларга бағишланган достонларда ҳам жамиятнинг оғриқлари, муаллифнинг орзу-умидлари ошкора изҳор этилган. Достоннинг асосий мақсади тарихий воқеликни поэтик тарзда тарихга муҳрлашдир.

Жумагул Сувонова бу ҳолатни жуда яхши билади. Чунки у шоира ва олима, қолаверса, мумтоз адабиётимиз билимдони. Шу сабабли ўзининг навбатдаги «Сулола» достонига анчагина тажриба ва алоҳида иштиёқ билан киришди. Зотан, устози профессор Ибодулла Мирзаевнинг термизийлар меросининг аҳамияти ҳақидаги суҳбатлари унда бу мавзуга жуда катта қизиқиш уйғотди.

Гарчи уч йил аввал «Самарқанднома» достонини битишда юзлаб манбаларни қидириб, катта машаққатларга дуч келган ва асар чоп этилгандан кейин унинг ўқувчилари жуда кўп эмаслигини англаган бўлса-да, Ж.Сувонова ижодий қатъиятда маҳкам



турди, ижодкорлик принципидан воз кечмади. Эҳтимол, шунинг учундир соҳа билимдонлари асарни катта маҳорат билан битилганини эътироф қилмоқдалар.

«Сулола» анъанавий услубда ёзилган. Яъни унда Термизий саййидлар сулоласига тегишли алломалар ҳаёти ва ижоди ҳамда илмий фаолияти ҳақида ҳикоя қилинади. Бундай ҳикоялар Хожа Самандар Термизийнинг «Дастур ул-мулук» асари ғояларига муносабат тарзида ёзилган. Термизийнинг бу асари подшоҳлар учун дастур сифатида эътироф этилган бўлса-да, унда инсон ҳаётининг турли ҳолатлари қаламга олинган. Жумагул ҳам айнан ана шу услубни давом эттирган ҳолда алломаларнинг пайдо бўлиши, асарларнинг туғилиши, унга одамларнинг муносабати ҳақида жуда равон байтлар ёза олган. 32 та фаслдан иборат достоннинг ҳар бир байти алоҳида сюжетга эга бўлса-да, улар бир-бирини тўлдириб боради. Деярли ҳар фаслда «Дастур ул-мулук» асаридан чиройли байтлар мисол келтирилади ва шарҳланади. Яна бир муҳим жиҳати шундаки, муаллиф достонда ҳар бир воқеликнинг ўз давридаги тарихийлиги ҳақида жуда чиройли ташбеҳлар яратган:

«Учинчи ҳикмат ҳам ойдек порлагай,
Дилни равшан гўшаларга чорлагай,
Ҳар юракни маърифат-ла бойитар,
Ҳар гўшани ҳақ нури-ла ёритар».

Достонда мингга яқин манбалардан фойдаланилган. Демак, муаллиф ҳар бир сатр ёки воқеликни шарҳлаш баробарида ана шунча манбаларни ўқиб ўрганган. Шу сабабли бу манбаларнинг аҳамияти, номи сатрлар мазмунига сингдирилган. Шунинг учун ҳам достонни ўқиган кишида термизийлар сулоласи ҳақида жуда бой таассурот пайдо бўлади. Бинобарин, муаллиф – олима ва шоира Жумагул Сувонованинг жасорати, маҳорати ҳам ана шундадир.

Яхшиси, китобни ўқиб сиз ҳам камина каби завқланинг.

Фармон ТОШЕВ.

Янги китоб

Ёнимиздаги одамлар

Инсон умрининг қиймати йиллар билан эмас, балки унинг эл-юрт учун қилган эзгу ишлари, тарбиялаган шогирдлари билан ўлчанади. Шу маънода Шароф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети муҳандислик физикаси институти доценти, физика-математика фанлари номзоди Сапарбай Курбаниязовнинг босиб ўтган ҳаёт йўли ҳақиқий педагог ва фидойи зиёлининг ибратли ҳаёт мактабидир.

Сабот ва фидойилик йўли



Сапарбай Курбаниязов 1956 йил 2 сентябрь куни Беруний шаҳрида таваллуд топди. Ёшлигидан илмга чанқоқлик уни Самарқанд давлат университетига бошлаб келди. Физика факультетини имтиёзли диплом билан тамомлаган ёш мутахассисни устозлари университетда олиб қолди. Бу ёш йигитнинг келажакда яхши физик ва моҳир педагог бўлишини улар олдиндан кўра билган эдилар. С.Курбаниязов ўз меҳнати ва матонати билан бу ишончни оқлади. Аспирантурани муваффақиятли тамомлаб, физика-математика фанлари бўйича номзодлик диссертациясини ҳимоя қилди. Кейинги йилларда эса илмий ходим, катта илмий ходим, ассистент ва доцент сифатида фаолият юритиб, талабаларга физика фанининг сир-асрорларини ўргатди.

Бугунги кунда ҳам устоз ўзининг севимли касбига садоқат билан хизмат қилиб, ёшларга таълим-тарбия беришдек шарафли вазифани давом эттирмоқда. Домла илмий-педагогик фаолияти давомида 150 дан ортиқ илмий ва илмий-услубий мақолалар, 10 дан зиёд ўқув қўлланмаларни нашр эттирди. С.Курбаниязовнинг меҳнатлари университет раҳбарияти ва ҳукуматимиз томонидан ҳам муносиб қадрланиб келмоқда.

Сапарбай домлани яхши билган ҳар бир инсон унинг энг аввало камтарин, самимий ва бағрикенг инсон эканини эътироф этади. У киши ҳар қандай жамоада барча билан тил топиша оладиган, ёшларга меҳрибон, катталарга ҳурматли, ҳамкасбларига содиқ инсон. Устознинг жамоатчилик ишларидаги фаолияти ҳам таҳсинга лойиқ. Узоқ йиллар давомида физика факультети декани ўринбосари ва касаба уюшмаси раиси, университет жамоатчилик кенгаши раиси сифатида самарали меҳнат қилди.

Устознинг ҳаётидаги энг катта бойликларидан бири бу албатта, унинг аҳил ва маърифатли оиласидир. Сапарбай Курбаниязов рафиқаси Тамарахон ая билан биргаликда фарзандларига нафақат яхши таълим, балки юксак тарбия ҳам бердилар. Бугунги кунда икки ўғил ва икки қиз олий маълумотли мутахассислар бўлиб, ўз фаолиятлари билан жамият тараққиётига хизмат қилиб келмоқдалар. Айниқса, ўғилларининг фан номзоди даражасига эришгани, қизларидан бирининг илмий ҳимоя арафасида тургани устоз оиласида илм-фан анъаналари давом этаётганини кўрсатади. Бу муваффақиятларда Тамарахон аянинг меҳри, сабр-тоқати, оқилалиги ва фидойилиги ҳам беқиёс ўрин тутади.


Бугун Сапарбай Курбаниязов 70 ёшини нишонламоқда. Биз, ҳамкасблар домлага мустаҳкам соғлиқ, узоқ умр, хотиржам ва бахтли ҳаёт тилаймиз.

Исмоил ЖАББОРОВ,
Мўмин ҚОДИРОВ,
СамДУ доцентлари.

Butunjahon shaxmat olimpiadasiga qanday tayyorgarlik ko‘rilyapti?

O‘yin qoidalari qanday, jamoalarning imkoniyati – chi?

Shu yilning 10-18-sentabr kunlari Samarqand shahrida imkoniyati cheklangan shaxmatchilar o‘rtasidagi III Butunjahon para-shaxmat olimpiadasi, 15–28-sentabr kunlari esa 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi o‘tkaziladi. Olimpiadada 200 dan ortiq mamlakatdan shaxmatchilar ishtirok etishi kutilmoqda.



Mezbon sifatida O‘zbekiston uchtadan erkaklar va ayollar jamoalari bilan qatnashadi. Musobaqaning asosiy bahslari Samarqand xalqaro turizm markazida o‘tkaziladi. Butunjahon shaxmat olimpiadasining ochilish va yopilish marosimlari ham markaz hududida bo‘lib o‘tadi.

Turnirni yuqori saviyada tashkil etish maqsadida tashkiliy qo‘mita tuzilib, FIDE bilan hamkorlikda yo‘l xaritasi ishlab chiqildi. Delegatsiyalar, hakamlar va ishtirokchilar uchun logistika hamda xavfsizlik masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, Samarqanddagi mehmonxona va sport inshootlari xalqaro talablarga moslashtirilib, zamonaviy elektron shaxmat doskalari, raqamli translyatsiya tizimlari, super kompyuterlar va boshqa texnik vositalar bilan jihozlanmoqda.

OLIMPIADALARDA SAMARQANDDAN KIMLAR ISHTIROK ETADI?

Nufuzli musobaqalarning III Butunjahon para-shaxmat olimpiadasi dasturida viloyatimizdan milliy terma jamoa safida Ilhom G‘ulomov, Amrillo Abdullayev va Ilhom Ergashev hamda olimpiada dasturida grossmeyster Jahongir Vohidov, xalqaro toifadagi shaxmatchi qizlar Afruza Hamdamova, Guldona Karimova, Marjona Malikova, Ozoda Shahzodova hamda Shohina Ahmedova yurtimiz sharafini himoya qiladi.

MUSOBAQADA QATNASHISH TARTIBI QANDAY?

III Butunjahon para-shaxmat olimpiadasi FIDE qoidalariga ko‘ra alohida reglament asosida tashkil etiladi. Har bir jamoa 4 nafar asosiy va 1 nafar zaxira o‘yinchisidan iborat bo‘ladi. Jamoa tarkibida kamida 1 nafar ayol sportchi bo‘lishi shart. Har bir turda kamida 1 nafar ayol o‘yinchi o‘ynashi talab etiladi. Jamoalar eshitishda nuqsoni bor, jismoniy imkoniyati cheklangan va ko‘rishda nuqsoni bor shaxslardan iborat bo‘lishi mumkin. Jamoalar imkon qadar kamida 2 nafar reytingga ega bo‘lgan o‘yinchidan iborat bo‘lishi tavsiya etiladi. Para-shaxmat olimpiadasida klassik shaxmat vaqt nazorati qo‘llaniladi. Dastlabki 40 ta yurish uchun 90 daqiqa, o‘yinning qolgan qismi uchun 30 daqiqa, birinchi yurishdan boshlab, har bir yurish uchun 30 soniya qo‘shib boriladi. Musobaqa Shveysariya tizimida (odatda 7 ta tur) bo‘ladi va o‘yinlar FIDE tomonidan tasdiqlangan elektron soatlar, shaxmat taxtalarida o‘tkaziladi.

46-Butunjahon shaxmat olimpiadasida har bir mamlakat ikkita asosiy guruh bo‘yicha terma jamoalarni ro‘yxatdan o‘tkazadi – “Open” (ochiq) va “Women’s” (ayollar). Musobaqa Shveysariya tizimida (odatda 11 tur) o‘tkaziladi. Har bir jamoa 5 nafar sportchidan iborat bo‘ladi va 4 nafari asosiy tarkib, 1 nafari zaxira o‘yinchisi. Har bir turda jamoadan faqat 4 nafar sportchi doskada o‘ynaydi. Zaxira o‘yinchisi istalgan turda asosiy tarkibdagi o‘yinchilardan birini almashtirishi mumkin. Jamoa a’zolari FIDE reytingiga qarab 1-dan 5-doska (board) gacha joylashtiriladi. 1-doska eng yuqori reytingga ega bo‘lgan o‘yinchi hisoblanadi.

ENG KUCHLI MAMLAKAT JAMOALARI HAQIDA

Hindiston — hozirgi kunda dunyodagi eng kuchli yosh grossmeysterlar (Gukesh, Praggnanandha, Arjun Erigaysi) jamlangan jamoa. O‘zbekiston — olimpiada chempioni (2022) va mezbon davlat. Javohir Sindarov va Nodirbek Abdusattorov yetakchiligidagi jamoa ruhiy ustunlik va uy muhiti tufayli asosiy favoritlardan biri. AQSh — Fabiano Karuana, Uesli So va Hikaru Nakamura kabi dunyoning top-o‘yinchilari bilan doimiy medallar da’vogari. Xitoy — doimiy ravishda kuchli texnik tayyorgarlikka ega bo‘lgan jamoa, shaxmat bo‘yicha dunyo yetakchilaridan biri. Germaniya — barqaror va kuchli tarkibga ega, ko‘plab kuchli grossmeysterlarni o‘zida birlashtirgan jamoa. Ozarbayjon — Shahriyor Mamedyarov va Teymur Rajabov kabi tajribali ustalar bilan har qanday kuchli raqibga qarshilik ko‘rsata oladi. Norvegiya — Magnus Karlsenning ishtiroki jamoani avtomatik tarzda asosiy favoritlar qatoriga olib chiqadi. Eron — yosh va juda tez o‘sayotgan iqtidorli shaxmatchilari bilan turnirning "kutilmagan sovg‘asi" bo‘lishi mumkin. Fransiya — Alireza Firuzja yetakchiligidagi jamoa har doim yuqori o‘rinlar uchun kurashadi. Turkiya — so‘nggi yillarda katta o‘sishga erishgan va raqobatbardosh tarkibga ega jamoa.

Ilhom ERGASHEV,
viloyat shaxmat federatsiyasi ijrochi direktori.

“VAQTING BO‘LGANDA QISHLOQQA BORARSAN, BOLAM”

Poliklinikada shifokor ko‘rigiga kirish uchun navbat kutib o‘tiribmiz. Shu payt bolasini opichlab olgan bir ayol shoshilib keldi.

– Iltimos, uyda ham yosh bolam bor. Oldinroq kirsam maylimi? – deb ruxsat so‘radi.

Navbati kelgan onaxon indamay yo‘l berdi.

– Nega navbatingizni berdingiz? Ertalabdan beri kutib o‘tiribsiz-ku? – dedi yonida o‘tirgan kishi hayron bo‘lib.

– Men bemor emasman. O‘g‘lim shu shifoxonada ishlaydi. Uni ko‘rib ketmoqchi edim, – dedi onaxon.

– Unda nega bu yerda navbat kutib o‘tiribsiz?

Onaxon jilmaydi.

– Ish paytida o‘g‘limni bezovta qilgim kelmadi. Bemorlari ko‘p ekan. Tushlik vaqti bo‘lishini kutyapman.

Shu payt shifokor eshikdan chiqib qoldi va onasiga ko‘zi tushdi.

– Ona, o‘zingiz keldingizmi? Vaqt topib, boraman degandim-ku!

Onaxonning yuzi yorishdi. Bugun o‘g‘lining tug‘ilgan kuni ekan. Farzandini bag‘riga bosib, duo qildi.

– Tug‘ilgan kuning muborak bo‘lsin, bolam. Bilaman, ishing ko‘p. Vaqting bo‘lganda qishloqqa o‘tarsan, o‘g‘lim...

Fazliddin RO‘ZIBOYEV.

Men sening bag‘ringda ungan bir ildiz

Nizomiddin ESHMURODOV 2001-yil 21-fevralda Nurobod tumanida tug‘ilgan. 2025-yilda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutini tugatgan. 2021-yilda “Umid fasli”, 2023-yilda “Tilaklarim sizga armug‘on” she’riy to‘plamlari nashr etilgan. Respublika Zomin seminari ishtirokchisi (2026-yil). She’rlari turk va ozarbayjon tillariga tarjima qilingan.



BIR HOVUCH TUPROQ

Vatan — otam qurgan loysuvoqli uy,
Derazamga qo‘ngan bolalik nuri.
Eshikdan kirganim — o‘zimga qaytish,
Ostonam — umrimning boshlanish siri.

Vatan — xotiramning tirik yuragi,
Necha yil o‘tsa-da yo‘qolmagan iz.
Bobolar ruhidan qolgan bir nido,
Ko‘ksimda uyg‘onar har eslagan kez.

Unda bobom ekkan orzular unar,
Tirik tilaklardan yashnar har yaproq.
Men sening bag‘ringda ungan bir ildiz,
Menga aziz hatto bir hovuch tuproq.

Vatan — kechmishimdir, bugunim, ertam,
Unda tomir otgan orzularim mo‘l.
Ko‘ksimda uyg‘onar yuksak bir ishonch,
Kelajagim sari uzataman qo‘l.

Ajdodlar kaftida asralgan bu yurt
Va yillar qa’ridan meros qolgan kuch.
Ko‘z nuriday asrab, avaylash — sharaf,
Uni avlodlarga yetkazmoq ham burch.

USTOZ

Maktab. Bolalik. Mehribon ustoz.
Kelajak aks etgan nurli ko‘zlarda.
Biz o‘n besh palopon jam bo‘lgan zahot,
Unga talpinardik o‘sha kezlarda.

Saboq berar edi fidoyi ustoz,
Barcha g‘am-qayg‘usin orqaga tashlab.
Bir kun gap boshladi: “Vatan nima?”, deb,
Bedorlik charchatgan ko‘zlarin yoshlab.

Murg‘ak qalbimizda chaqmoq edi u,
Ilk bor tanitgandi qorani, oqni.
Jajji qo‘limizga kitob tutdi-yu
“Vatan!”, deb ko‘rsatdi ona tuproqni.

Shunda biz angladik Vatan neligin,
“Uni asrash kerak!”, dedik shahd bilan.
Daqiqa omonat, o‘qiylik bugun,
Ertaga uyg‘onmoq uchun baxt bilan.

So‘ng sekin ulg‘aydik, tarqaldik har yon,
Elni asramoqqa ichgancha qasam.
Yurtga muhabbatim shu bo‘lsa kerak,
Har aytar so‘zimda Vatan mujassam.

Hozir-chi, birimiz faol tadbirkor,
Birimiz muallim, birimiz shoir.
Ustoz uqtirgandek behad baxtiyor,
Xizmat qilmoqdamiz shu elga doir.

Ash’orlar bitaman garchi sha’niga,
Hamon sog‘inaman ustoz darsini.
Ta’zim qilsam hamki, qirqta joniga,
Ado etolmayman, ammo qarzini.

Mudom tolmagaydir vujudimda jon,
Ma’rifat istagan ko‘ngil arzidan.
Yillar ortga qaytsa tinglardim hamon,
Ustoz saboq bersa hayot darsidan!..

Nizomiddin ESHMURODOV.

MATBUOT UYI
Zarafshon
САМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 299 nusxada chop etildi. Buyurtma 325. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E’LONLAR:** (66) 233-91-56
BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: G‘.HASANOV.
Navbatchi: Y.MARQAYEV.
Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X
9 772010 667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda